

Introvert va ekstrovert xarakter aksentuatsiya tiplarining xulq-atvorga ta'siri (E.Fromning ijtimoiy xarakter nazariyasi asosida)

Xaydarjon Odilboyevich Jurayev

ORCID: <https://orcid.org/0000-0002-2585-8439>

University of business and science

Annotatsiya: Ushbu maqolada introvert va ekstrovert aksentuatsiya tiplarining xulq-atvorga ta'siri E.Fromning ijtimoiy xarakter nazariyasi asosida tahlil qilinadi. Ekstrovert shaxslar esa tashqi muhit bilan faol aloqada bo'lib, ekspluatatsion va bozor orientatsiyalariga moyil bo'ladi, ijtimoiy muvaffaqiyat va tan olinishga sezgirlik bilan harakat qiladi. Fruktif (mehnatbardosh) orientatsiya har ikkala tipda ham mavjud bo'lib, shaxsiy imkoniyatlarni rivojlantirish va boshqalarga yordam berish orqali xulq-atvorda uyg'unlikni ta'minlaydi. Tadqiqot natijalari pedagogik amaliyot, psixologik diagnostika va shaxsiy rivojlanish strategiyalarini shakllantirishda ilmiy asos sifatida xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: introvert, ekstrovert, aksentuatsiya, ijtimoiy xarakter, E.From, xulq-atvor, fruktif orientatsiya

The influence of introverted and extroverted character accentuation types on behavior (based on E.Fromm's social character theory)

Khaydarjon Odilboyevich Jurayev

ORCID: <https://orcid.org/0000-0002-2585-8439>

University of Business and Science

Abstract: This article analyzes the influence of introverted and extroverted accentuation types on behavior based on E. Fromm's social character theory. Extroverted individuals, on the other hand, actively interact with the external environment, are prone to exploitative and market orientations, and act sensitively to social success and recognition. Fruitive (collaborative) orientation is present in both types, ensuring harmony in behavior by developing personal capabilities and helping others. The results of the study serve as a scientific basis for the formation of pedagogical practice, psychological diagnostics, and personal development strategies.

Keywords: introvert, extrovert, accentuation, social character, E.From, behavior, fruitful orientation

Kirish

Shaxsiyat tipologiyasi va aksentuatsiya masalasi psixologiyada inson xulq-atvori va ijtimoiy moslashuv jarayonlarini tushunish uchun muhimdir. Introvert va ekstrovert aksentuatsiyalar shaxsning ijtimoiy muhitga munosabati, energiyasi va harakatlarining izchilligi bilan bog'liq bo'lib, ularning xulq-atvorga bevosita ta'siri mavjud. E.Fromning ijtimoiy xarakter nazariyasi inson shaxsiyati va jamiyat munosabatlarini tahlil qilishda muhim manba hisoblanadi. U ijtimoiy xarakterni shaxsning jamiyatga moslashuvi, tashqi zarurlatlarni ichki xatti-harakatlarga aylantirish va inson energiyasini ijtimoiy-iqtisodiy tizim vazifalarini bajarishga yo'naltirish bilan izohlaydi.[1]

Ijtimoiy xarakter tashqi zaruratni interiorizatsiya qiladi va shu orqali inson energiyasini ma'lum ijtimoiy-iqtisodiy tizim vazifalarini bajarishga yo'naltiradi. Agar yangi iqtisodiy sharoitlar yuzaga kelsa, bunda ilgari mavjud bo'lgan shaxsiy xususiyatlar foydasiz bo'lib qoladi, lekin insonlar dastlab o'z xarakteriga muvofiq harakat qilishga intilishadi, bu esa ularning harakatlarini iqtisodiy maqsadlar uchun to'siqqa aylantirishi yoki ularni o'z "tabiatiga" mos harakat qila olmasligiga olib keladi. Ijtimoiy xarakter o'zini jamiyatning umumiy turmush tarzida shakllantiradi, biroq ijtimoiy xarakterning dominant xususiyatlari o'z navbatida ijtimoiy jarayonlarni shakllantiruvchi ijodiy kuchga aylanadi. Ijtimoiy sharoitlarning o'zgarishi ijtimoiy xarakterning o'zgarishiga olib keladi — yangi ehtiyojlar va tashvishlar yuzaga keladi, bu yangi ehtiyojlar esa yangi g'oyalarni keltirib chiqaradi. Yangi g'oyalar esa yangi ijtimoiy xarakterni mustahkamlaydi va inson faoliyatini yangi yo'nalishga yo'naltiradi.

E.From ijtimoiy xarakterning turli orientatsiyalarini ajratadi:

Qabul qiluvchi (receptiv) orientatsiya - Ushbu tipdagi shaxslar tashqi muhitni barcha ijobiy narsalarning manbai deb hisoblaydi va o'z istaklariga erishishning yagona yo'li ularni tashqi manbadan olish deb biladi. Bu shaxslar asosan optimistik va do'stona bo'lsalar-da, "ta'minot va g'amxo'rlik manbai" yo'qolish xavfi yuzaga kelganda vahima va bezovtalikka tushadi. Shuningdek, ular bezovtalik va tushkunlikni oziq-ovqat va ichimlik orqali bartaraf etishga intiladi.

Ekspluatatsion orientatsiya - Ushbu tipdagi shaxslar ham barcha zarur boyliklarni tashqi muhitda deb hisoblaydi, lekin ularga berilgan narsalarga umid bog'lamaydi. Ular istalgan narsaga kuch yoki hiyla bilan erishish, boshqalardan tortib olish orqali ega bo'lishni ma'qul ko'radi. Ekspluatatsion shaxslar boshqalarni foydalanish va manipulyatsiya qilish obyekti sifatida ko'radi; ular uchun

“o‘g‘irlangan meva eng shirin” tamoyili amal qiladi. Bunday shaxslar tanqidiy, shubhali, yashirin yoki ochiq dushmanlik, hasad va rashk tuyg‘ulariga moyil bo‘ladi.

Jamg‘ar (styatel) orientatsiya - Ushbu tipdagi shaxslar tashqi dunyodan yangi narsalar olish mumkinligiga ishonmaydi, shuning uchun mavjud narsalarni saqlash va tejashga intiladi. Ular o‘zlarini himoya qiluvchi devor bilan o‘rab oladi; asosiy maqsad imkon qadar ko‘p narsani o‘z hududiga olib kirish va imkon qadar kamini berish. Sevgi sohasida ular sevgilisini to‘liq egallashga intiladi va uni o‘z mulki sifatida ko‘radi. Moddiy sohada ular sermazmunlik, ochko‘zlilik, ortiqcha tejamkorlik va ehtiyotkorlikni namoyon qiladi. Ularning obsesiv tozaligi tashqi dunyo bilan aloqani cheklash ehtiyojini ifodalaydi. Ular dunyoni xavfli va iflos deb hisoblab, o‘z qarashlarida qat’iy va shubhali bo‘lib qoladi, boshqalardan uzoqlashadi yoki boshqa shaxsni to‘liq egallashga intiladi.[1]

Bozor (market) orientatsiya - Bu orientatsiya zamonaviy bozor iqtisodiy sharoitlari bilan shakllangan. Shaxs o‘zini “mahsulot” sifatida, shaxsiy qiymatini esa almashinuv qiymati sifatida qabul qiladi. Zamonaviy bozor jamiyatida moddiy muvaffaqiyat, xizmat uchun to‘laydigan yoki ishga oladigan kishilarning tan olishi bilan bog‘liq. Shaxs muvaffaqiyatga erishish uchun o‘zini bozorga yaxshi sotishni o‘rganishi kerak; bu jarayonda shaxsiy individual xususiyatlar ahamiyatsiz bo‘ladi. Bozor orientatsiyasiga ega shaxs barqaror qarashlardan mahrum, o‘z shaxsiyatini sotishga yaroqli fazilatlarni rivojlantiradi. Shaxsiy qadr-qimmat emas, balki bozor orqali erishiladigan foyda muhim bo‘ladi. E.From ushbu orientatsiyalarga qarshi mehnatbardosh orientatsiyani inson rivojlanishining maqsadi sifatida ajratadi.

Mehnatbardosh (fruktif) orientatsiya - Shaxsning fundamental xatti-harakati va inson tajribasining barcha sohalarida mehnatbardoshlik insonning o‘z kuchi va imkoniyatlaridan samarali foydalanish qobiliyati sifatida namoyon bo‘ladi. Mehnatbardosh shaxs aqli bilan harakat qiladi, o‘z kuchini to‘g‘ri ishlatishni biladi va insoniy imkoniyatlarini ro‘yobga chiqaradi. “Mehnatbardosh” va “faol” tushunchalari bir-biriga to‘g‘ri kelmaydi; mehnatbardoshlik shaxsning sog‘lom, yetuk va o‘zini anglashi, boshqalarni tushunish va o‘zini rivojlantirish qobiliyatini bildiradi.

Introvert shaxslar: Ichki energiya manbai bilan faoliyat qiladi, o‘z fikr va his-tuyg‘ulariga tayanadi, ichki dunyo bilan bog‘liq qarorlar qabul qiladi, tashqi ta’sirlarga sezgirlik pastroq, shaxsiy xulq-atvorni ichki qoidalar boshqaradi.

Ekstrovert shaxslar: Tashqi muhit bilan faol aloqada bo‘ladi, energiya va motivatsiyani atrof-muhitdan oladi, jamiyat va odamlar bilan o‘zaro munosabatlar asosida harakat qiladi, ijtimoiy xarakterga moslashuvi yuqori, tashqi sharoitlar ularga kuchli ta’sir qiladi.

E.From nazariyasiga ko‘ra, ijtimoiy xarakter quyidagi asosiy orientatsiyalarni o‘z ichiga oladi: qabul qiluvchi, ekspluatatsion, jamg‘ar, bozor va fruktif (mehnatbardosh).

1. Jadval

Introvert va ekstrovert aksentuatsiya tiplari va ijtimoiy xarakter orientatsiyalari

Aksentuatsiya tipi	Energiya manbai	Dominant orientatsiya (From)	Xulq-atvor xususiyatlari	Psixologik xulosa
Introvert	Ichki	Qabul qiluvchi Jamg'ar	Ichki introspeksiya, ehtiyotkorlik, passiv qabul, xavfsizlikni saqlash	Ichki dunyo bilan bog'liq, tashqi muhitga sezgirlik past, o'z qoidalariga amal qiladi
Introvert	Ichki	Fruktif (mehnatbardosh)	Ichki rivojlanishga yo'naltirilgan, mehnatbardosh sevgi, hurmat va mas'uliyat	Shaxsiy salohiyatni rivojlantirish, o'z imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish
Ekstrovert	Tashqi	Ekspluatatsion Bozor	Ochiq, faol, boshqalardan foydalanishga moyil, raqobatga tayyor	Tashqi ta'sirlarga sezgir, ijtimoiy muvaffaqiyat va tan olinishga intiladi
Ekstrovert	Tashqi	Fruktif (mehnatbardosh)	Jamiyat bilan uyg'un aloqada, boshqalarga yordam beradi, faol va mas'uliyatli	Ijtimoiy muhitdan energiya olib, boshqalarni rivojlantirishga qodir

Introvert - Qabul qiluvchi jamg'ar orientatsiya, ichki dunyo bilan bog'liq qarorlar qabul qiladi, qabul qiluvchi shaxslar tashqi manbaga tayanadi, jamg'ar shaxslar esa mavjud narsalarni saqlashga intiladi.

Introvert - Fruktif orientatsiya, ichki kuch va imkoniyatlarni rivojlantirishga yo'naltiriladi, shaxsiy o'sish va boshqalarga yordam berish orqali xulq-atvorda izchillik hosil qiladi.

Ekstrovert - Ekspluatatsion Bozor orientatsiya, tashqi dunyo bilan faol aloqada bo'ladi, boshqalardan resurs olish yoki savdo orqali muvaffaqiyatga erishadi, bozor orientatsiyasi shaxsni ijtimoiy muvaffaqiyat va tan olinishga bog'laydi.

Ekstrovert - Fruktif orientatsiya, tashqi muhitdan energiya oladi, boshqalarni rivojlantirishga yo'naltirilgan faoliyat bilan shug'ullanadi, ijtimoiy hamkorlik va mas'uliyat asosida xulq-atvor uyg'unlashadi.[3]

Xulosa sifatida shuni aytishimiz mumkinki tadqiqotdan ko'rinib turibdiki, introvert va ekstrovert aksentuatsiyalar shaxsning xulq-atvoriga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Introvert shaxslar ichki energiya manbai bilan harakat qilgani uchun, ular ko'pincha introspektiv, ehtiyotkor va ichki qoidalar asosida qaror qabul qiluvchi xulq-atvor namoyon qiladi. Bu shaxslar, asosan, qabul qiluvchi yoki jamg'ar orientatsiyalarga moyil bo'lib, tashqi muhit bilan cheklangan aloqada bo'ladilar. Shu bilan birga, fruktif orientatsiya bilan birlashganda, ular o'z imkoniyatlarini rivojlantirish va boshqalarga yordam berish orqali ijtimoiy hamkorlikda faol ishtirok etadi. Ekstrovert shaxslar esa tashqi muhitdan energiya olib, boshqalar bilan faol aloqada bo'lib, ekspluatatsion va bozor orientatsiyalariga moyillik ko'rsatadi.

Ular ijtimoiy muvaffaqiyat va tan olinishga intiladi, tashqi sharoitlar va jamiyat talablariga sezgir bo'lib, xulq-atvorni moslashtirish qobiliyatiga ega. Shuningdek, fruktif orientatsiyaga ega bo'lgan ekstrovertlar, tashqi muhitdan energiya olib, boshqalarni rivojlantirish va mas'uliyatni amalga oshirish orqali xulq-atvorini ijobiy

tarzda uyg'unlashtiradi. Shunday qilib, Fromning ijtimoiy xarakter nazariyasi va aksentuatsiya tipologiyasi birlashtirilganda, shaxsning xulq-atvori, ijtimoiy moslashuvi va shaxsiy salohiyatini tushunishda chuqur ilmiy asos yaratadi. Tadqiqot natijalari pedagogik amaliyot, psixologik diagnostika va shaxsiy rivojlanish strategiyalarini shakllantirishda foydali bo'lishi mumkin. Kelajakda tadqiqotlarda ushbu yondashuv asosida talabalarning ijtimoiy xarakteri va aksentuatsiya tiplari bo'yicha empirik tadqiqotlar olib borilishi, individual xulq-atvorni aniqlash va rivojlantirishda qo'llanilishi tavsiya etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Шамардина, М. В., Ральникова, И. А., & Петухова, Е. А. (2020). Психология характера: учебное пособие.
2. Захарченко, В. В. (2018). Акцентуации характера учащихся высших и средних специальных учреждений образования с различными типами отношения к символической реальности: аннотация к дипломной работе/Захарченко Владислав Владимирович; факультет философии и социальных наук; кафедра психологии; научный руководитель: Поляков АМ.
3. Olimbayevna, R. M., & Odilboyevich, J. X. (2026). SHAXS JINOYATCHILIKKA MOYILLIGINING GRAFOLOGIK PSIXOLOGIK TAHLILI (Yetuklikning birinchi bosqichi misolida). Лучшие интеллектуальные исследования, 61(1), 54-63.
4. Jurayev, X. O. (2023). O 'smirlarda xarakter aksentuatsiyasi tiplarining deviant xulq-atvor shakllanishiga ta'sirining psixologik mexanizmlari. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 3(9), 560-569.
5. Yuldiyevna, B. G. (2020). Masofaviy ta'limdagi talaba shaxsini tarbiyalashda psixologik tavsiyalar. Science and Education, 1(1), 454-457.
6. Nishonova, Z. T., Xodjaqulova, D. I., Djumaboyeva, M. B., & Baykunosova, G. Y. (2013). Kichik maktab yoshidagi bolalar xavotirlanish psixokorreksiya erta terapiyasidan foydalanish uslubiyati.
7. Gulmira, B. (2019). Semantic and psychological relationship of Envy and Jealousy. In Bridge to science: research works (pp. 174-176).
8. Байкунусова, Г. Ю. (2018). ВИДЫ И ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ЗАВИСТИ. In Педагогика и психология в современном мире: теоретические и практические исследования. (pp. 138-141).
9. Olimbayevna, R. M., & Odilboyevich, J. X. (2026). SHAXS JINOYATCHILIKKA MOYILLIGINING GRAFOLOGIK PSIXOLOGIK TAHLILI (Yetuklikning birinchi bosqichi misolida). Лучшие интеллектуальные исследования, 61(1), 54-63.

10. Jurayev, X. O. (2026). Xarakter aksentuatsiya konsepsiyasini ijtimoiy psixologik jixatdan qo 'llash sohalari. Science and Education, 7(1), 1050-1055.
11. Jurayev, X. O. (2024). Shaxsning ijtimoiylashuv jarayonida o 'z men konsepsiyasining psixologik mexanizmlari. Science and Education, 5(9), 237-242.
12. G.O. Bekberdiyeva. (2025). FORMATION OF ORGANIZATIONAL SKILLS OF FUTURE TEACHERS. <https://doi.org/10.5281/zenodo.14825535>